

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№ QY8163402756

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma № 6-sonli.

2. **Loyihaning turkumi:** Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish haqida..

3. **Loyihaning ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Quvasoy shahar Xalq ta'lim bo'limi bilan "VERTIKAL PLUS" X/K o'rtasida ishlab chiqilgan va umumiy bahosi 358 611 024 (Uch yuz ellik sakkiz million olti yuz o'n bir ming yigirma to'rt) so'm 00 tiyin bo'lgan hamda 2022-yil 20-iyul kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan shartnoma loyihasi.

4. **Loyiha bo'yicha taklif:**

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, unga ko'ra:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos holda tuzilganligini;

- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**XULOSA:**

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Quvasoy shahar Yu.X.K.

Markazi bosh yuriskonsulti



Sh.Tursunboyev

## Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha

### SHARTNOMA № 6

2022 yil «23» 07

Quvasoy shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Quvasoy shahar xalq ta'limi bo'limi nomidan bo'lim mudiri I.Muminov (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "Vertikal Plyus" X/K (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar I.Burxanov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona viloyati, Quvasoy shahar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 5-sonli maktab binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

#### 2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'implar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 358 611 024.00 (uch yuz ellik sakkiz million olti yuz o'n bir ming yigirma to'rt) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

#### 3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan xolda amalga oshiriladi.

#### 4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

#### 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda «Pudratchi»dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. «Buyurtmachi» tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

#### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin

bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar Ko'rib chiqqan yurist: Musayev Sherbek Mustafayevich. Hujjat raqami: PD5552472136 qiymatini 50% dan oshmasligi kerak. Penya «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasing 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### 7. FORS-MAJOR HOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

#### 8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.




#### 9. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa «Buyurtmachi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabr gacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hududiy g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### 10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<p>«Vertikal plyus» Xususiy korxonasi</p> <p>Manzil: Farg'ona shahar, Xudjand 23/20 Tel: 998 73 241-95-53 X/r: 2020 8000 2045 1106 2001. Bank nomi: "Madad Invest bank" Farg'ona filial MFO: 01142 Tashkilotning STIR: 206559014 IFUT(okonx): 01142</p> <p> Baxbar:  A. Burxanov</p>	<p>Quvasoy shahar xalq ta'limi bo'limi Manzil: Mustaqillik ko'chasi 34-uy Tel./faks: +(8 73) 372 -14-04 H/R: 401722860304087092100075012 Tashkilotning STIRi: 200123030 IFUT(okonx): 97600 Quvasoy shahar G'aznachilik bo'linmasi H/R: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM) MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919</p> <p>Mudir:  I. Muminov</p>



«ТАСДИҚЛАЙМАН»  
Кувасой шаҳар халқ таълим  
бўлими раҳбари  
И.Муминов

23.07.2022 йил

Кувасой шаҳри

Кувасой шаҳар халқ таълим бўлимига қарашли 5-мактаб биносини жорий таъмирлаш ишлари учун №120735 лот рақамли эълоннинг 19.07.2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

### БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Кувасой шаҳар 5-мактаб биносини жорий таъмирлаш ишлари учун опен бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва ҳаражатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Кувасой шаҳар 5-мактаб биносини жорий таъмирлаш ишлари юзасидан 19.07.2022 йил куни тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан [etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz) махсус ахборот порталидаги 19.07.2022 йил куни тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада ғолиб деб топилган “Vertikal Plyus” Х/К билан белгиланган тартибда 358 611 024 (Уч юз эллик саккиз миллион олти юз ўн бир минг йигирма тўрт) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

К.Жадигаров \_\_\_\_\_

Г.Муминова \_\_\_\_\_

М.Аметов \_\_\_\_\_

Ғ.Мирзамуратов \_\_\_\_\_

Котиба:

Н.Мансурова \_\_\_\_\_